

Urganch davlat univertiteti Filologiya fakulteti  
o‘zbek tili 403-guruh talabasi  
Ibragimova Hulkarning “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy  
grammatikasi” fanidan

# REFERATI

**Urganch-2015**

## Mavzu: Turkiy tillarda fonologik birliklar

Reja:

1. Turkiy tillarda fonologiyasi haqida.
2. Turkiy tillarda bo‘g‘in.
3. Turkiy tillarda urg‘u.
4. Turkiy tillardagi fonologik birliklarning o‘ziga xosligi.

Turkiy tillarda bo‘g‘inning asosiy elementi– yadrosi sifatida faqat unli sanalishi mumkin. Undoshlar esa bo‘g‘inning oldingi va oxirgi qismini hosil qiluvchi elementlardir. Bo‘g‘inda unlining mavjud bo‘lishi shart, undoshlarniki esa bunday emas.

Turkiy tillarda bo‘g‘inning quyidagi asosiy tiplari mavjud: **V, V+C, V+C+C, V+C, C+V+C, C+V+C+C.**

Unlilarning bo‘g‘in hosil qilishdagi vazifasi chegaralanmagan bo‘lsa, bo‘g‘inda undoshlar miqdori va qisman sifat chegarasiga ega. So‘z boshida bitta undosh bo‘lishi mumkin, oxirida undoshlar soni ikkita bo‘lib, ulardan biri, odatda, sonant (**ng** dan tashqari), kam holatda jarangsiz oraliq, ikkinchisi shovqinli portlovchi bo‘lishi mumkin. Bunda bo‘g‘inning oxirgi qismidagi undoshlar qo‘shilib, ularning ko‘pchiligi morfologik elementlarni biriktiradi: o‘zakka qo‘shilganlar-umumturkiy holat darajasidagi bunday elementlar unlilar vositasida birikadi: q.turk. **elt** (elt)<**alit**; **ayt** (ayt)<**ayit**, **tinch** (tinch)<**tinich**, **körk** (obraz, go‘zallik)<**körük**.

Ayrim turkiyshunoslar turkiy tillar uchun uchta elementdan–**C+V+C**dan iborat o‘zak-bo‘g‘inni tipik deb hisoblaydilar. Bunda o‘zak-bo‘g‘inlar, haqiqatan ham, alohida o‘rin egallaydi. Bunga boshqa tiplar ham borib taqaladi: ozarb. **ud** (yut)<**yut**, **il** (yil)<**yil**; tuv. **üs** (suzmoq)<**sus**; yoq. **al** (sudno, sol)<**säl**, **üt** (sut)<**süt**, **ia** (sog‘moq)<**sag‘**, **tia** (tayga, o‘rmon)<**tag‘**, **u** (suv)<**sug‘~sub**; qirg‘. **sürt**. (surkamoq)<**sür+t**. Ammo **C+V+C** tipidagi bo‘g‘inlarga **V, S+V, V+S** tipidagi bo‘g‘inlarni olib borib taqash mumkin emas. Bunday bo‘g‘inga o‘xshagan boshqa tiplari, chunonchi, **C+V+C** tipi doimo birlamchi emas: ozarb. **sin** (sinmoq)<**si+n**; o‘zb. **bog‘**<**pä+g‘**; qirg‘. **sun** (tortmoq)<**sü+n**. **C+V+C** tipidagi bo‘g‘inlarni hosil qilish imkoni bo‘g‘in boshidagi unlilarni **y, v, h** undoshlari bilan protezalanishini vujudga keltiradi. Bu, ko‘pincha, chuvash, ozarbayjon, turkman, o‘zbek, uyg‘ur va gagauz tillariga xosdir. Turkiy tillarda oxiri undosh bilan tugagan barcha turli tipdagi bo‘g‘inlarga oxiri unli bilan tugagan bo‘g‘inlar avvalgi bo‘lib, bu turkiy bobotil, shuningdek, mo‘g‘ul tillarida ham ochiq bo‘g‘inlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shu munosabat bilan, ta’kidlash kerakki, ayrim turkiy tillarda oxiri unli bilan tugaydigan ikki bo‘g‘inli o‘zaklarga boshqa turkiy tillardagi bir bo‘g‘inli yopiq o‘zaklarga, ma’lum darajada, muntazam ravishda mos kelishini namoyon etadi. Ammo ulardagi qo‘shimcha unlilar yagona rivojlanish chizig‘ini tashkil qilmaydi. Demak, ushbu struktura xususiyatini umumturkiy darajasida bo‘rttirish holati yo‘q.

Turkiy bobotil davrida urgʻu kuchli boʻlib, u soʻzning birinchi boʻgʻiniga tushgan. Bunga quyidagilarni dalil sifatida keltirish mumkin:

1. Unlilar garmoniyasini amalga oshirishda birinchi boʻgʻin oʻzining yoʻnal-tiruvchilik rolini saqlashi uchun u sifatini yoʻqotishi kerak edi. Uni faqat birinchi boʻgʻinga urgʻu tushgan taqdirdagina saqlash mumkin edi.

2. Turkiy bobotilda urgʻuning turli oʻrinlarda boʻlmasligining asosiy sababi shundaki, unlilar garmoniyasiga ega boʻlgan tillar muayyan holatdagi urgʻu bilan ajralib turadi.

3. Urgʻuning birinchi boʻgʻinda kelishi soʻzning jarangsiz undosh bilan boshlanishi bilan doimo bogʻliq (ural bobotilida soʻzning jarangsiz bilan boshlanishi urgʻuning birinchi boʻgʻinda boʻlishiga bogʻliq edi).

4. Keyinchalik turkiy tillarda urgʻu birinchi boʻgʻindan oxirgi boʻgʻinga koʻchadi. Buning sababi aniq emas.

Hozirgi turkiy tillarda urgʻu espirator-musiqaviy hisoblanadi. Urgʻudagi musiqaviylik va kuch momenti gapning xarakteriga va turkiy tillardagi soʻz va frazaviy urgʻu bilan bogʻliqligi bilan izohlanadi. Urgʻuning oxirgi yoki undan oldingi boʻgʻinga tushishi muayyan holatlarda boʻladi: tur. **babá** (ota)~tat. **а'lásъñ** (olasan) kabi.

Hozirgacha turkiy tillardagi urgʻuning tabiati munozaraligicha qolmoqda. Dastlab, turk tilidagi urgʻu haqida tadqiqotlar paydo boʻldi.

Oʻtgan asrning boshlarida turk tilida urgʻu ekspirator (kuch) urgʻusi boʻlib, u, asosan, soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi, degan fikr hukmron edi. Turkshunos I. Kunosh hali 1905-yildayoq turk tilida ekspirator urgʻuning soʻz oxiriga emas, birinchi boʻgʻinga, oxirgi yoki oxirgi boʻgʻinlardan biriga tonik (musiqiy) urgʻu tushishi haqidagi fikrlarni tanqid ostiga olgan edi.

1906-yili turkolog K. Nilsen turk tilidagi urgʻuga bagʻishlangan ishida, asosan, ikki bugʻinli soʻzlarni tekshira borib, urgʻu oʻrnining soʻzning boʻgʻini tarkibi va unlilar sifatiga bogʻliqligini taʼkidlagan edi. Uning fikricha, agar ikki boʻgʻinli soʻzning birinchi bugʻini yopiq, ikkinchisi ochiq boʻlsa, urgʻu doimo birinchi boʻgʻinga; agar birinchi boʻgʻin ochiq, ikkinchisi yopiq boʻlsa, quyidagicha boʻladi:

a) agar birinchi boʻgʻinda **u, ü, i, i** unlilari boʻlsa, urgʻu ikkinchi boʻgʻinda;

b) agar birinchi boʻgʻinda **a, e, o, ö, a**, ikkinchida **u, ü, i, i** boʻlsa, urgʻu birinchi boʻgʻinga, agar birinchi boʻgʻinda **o, ö, a**, ikkinchisida **a, e** boʻlsa, urgʻu ikkinchi boʻgʻinda; agar ikkala boʻgʻin ham ochiq yoki yopiq boʻlsa, urgʻuning oʻrni sonorlik darajasi yoki unlining choʻziqligi bilan bogʻliq boʻladi; agar har ikkala boʻgʻin ham ochiq yoki yopiq boʻlib, ikkala boʻgʻinda bir xil unli boʻlsa, urgʻu ikkinchi boʻgʻinga tushadi. Turkshunos V. Pryole turkiy tillarda, anʼanaviy fikrlarga tayangan holda, tovushlarning tarkibiga qaramasdan, urgʻuning oxirgi boʻgʻinda boʻlishini taʼkidlaydi.

Ozarbayjon tilidagi urgʻuni tadqiq qilgan Sh. M. Abdullayev ushbu tildagi urgʻuning har xil ekanligini, ayrim affikslarning umuman urgʻu olmasligini, odatda, urgʻuning oxirgi boʻgʻinga tushishini, ikkala, uch yoki toʻrt boʻgʻindan iborat soʻzlarda, toʻrt boʻgʻinli soʻzlardan farqli oʻlaroq, besh, olti va yetti boʻgʻinli soʻzlarda birinchi 2–3 boʻgʻin (oʻzak boʻgʻinlari) ikkinchi darajali urgʻuga ega

bo'lishi, asosiy urg'u esa yoki oxirgi, yoki oxirgidan oldingi bo'g'inga tushishini, urg'uning so'z hosil qiluvchi, so'zni chegaralovchilik xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi: **axshám** (kecha), **áxsham** (kechasi), **burá** (mana shu joyga), **búra** (bu yerga), **hará** (qaysi yerga), **hára** (qayerga), **sabáh** (ertalab), **sábah** (ertaga), **künortá** (tush), **künorta** (tushda).

Bunday holat qorachoy-balqar tilida ham kuzatiladi: **burún** (burun), **búrun** (avval), **almá** (olma), **álma** (tegma), **atám** (mening otam), **átam** (otam mening) kabi.

Oltoy tilida urg'u oxirgi bo'g'inga, ko'p bo'g'inli so'zlarda asosiy urg'u bilan birga ikkinchi darajali bo'g'in ham mavjud bo'ladi. So'zga affikslar qo'shilishi bilan urg'u oldinga ko'chaveradi.

Bu holat boshqird, gagauz, qaraim, qirg'iz, turkman, o'zbek, uyg'ur va shor tillarida ham kuzatiladi.

Qozoq tilida ham urg'u so'zning oxirgi bo'g'inida yoki undan oldingi bo'g'inga tushadi. Ushbu tilda urg'u olmaydiganga shaxs-predikativ, **day** o'xshatish yuklama affiksi va boshqalar kiradi: **okushimíz** (bizning o'quvchi), **okushimíz** (biz o'quvchimiz), **körmé** (ko'rgazma), **körme** (ko'rma), **injenersiz** (injenersiz), **injenersiz** (siz injener), **körshì** (uning qo'shnisi), **körshi** (ko'r-chi), **kaliñiz** (sizning xolingiz), **kaliñiz** (qolingiz), **üydé** (uyda), **úyde** (va uy), **kalalik** (shaharlik), **kalálik** (qolaylik-chi).

Qoraqalpoq tilidagi urg'u ham qozoq tilidagiga o'xshab ketadi. Bu tilda urg'u birinchi bo'g'inga tushadigan so'zlar bor: **néshe** (nechta), **qáyda** (qayerda), **qáysi** (qaysi).

O'zbek tilida fe'l turkumidan bo'lmagan so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inda bo'ladi. Arab va fors tilidan o'zlashgan ayrim ravish va bog'lovchilar bundan mustasno: **albátta**, **hátto**, **ámmo**, **bá'zan**, **lèkin**. Fe'l shakllarida asosiy urg'u rang-barangligi bilan xarakterlanadi: **qaráng**, **o'tíraman**, **kéltirmangizlar**. Qo'shimcha (ikkinchi darajali) ikki bo'g'inli so'zlarda, asosiy urg'udan oldiñi 2–3-bo'g'inli so'zlarda kuzatiladi. Bunday holatda bosh urg'u oxirgi bo'g'ingia tushmaganda, ikkilamchi urg'u oxirgi bo'g'inga ko'chadi. Uchinchi darajali urg'u birinchi yoki undan keyingi bo'g'inga tushadi. Ammo, ba'zan, ikkilamchi urg'u oldin kelishi mumkin: **siz o'zbèkmi**, **qizginá** (kichkina qiz), **qizgina** (faqat qiz), **yozmá** (yozilgan xat), **yózmá** (yozma), **o'qituvchimiz** (bizning o'qituvchimiz), **o'qituvchimiz** (biz o'qituvchimiz).

Yoqut tilida so'z urg'usi so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi.

Ko'rinib turganidek, turkiy tillardagi urg'u to'g'risida turli fikrlar mavjud bo'lib, hatto muayyan bir tilda ham ular turlicha.

Turkiy bobotilda ko'p bo'g'inli so'zlarda urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushganligi faraz qilinadi.

**Ohang.** Turkiy tillarda ohangning roli katta. Zarb turlicha bo'ladi. Yuqori ohang–bosh urg'uda, o'rtacha–ikkinchi darajalida, uchinchi darajali urg'uda kuchsiz ohang bo'ladi.

Turkiy tillar vokalizmi tarixini o'rga-nishda turkiy tillar uchun asosiy xususiyat bo'lgan unlilar garmoniyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pchilik dalillar shuni ko'rsatadiki, turkiy bobotilda unlilar garmoniyasi mavjud bo'lgan,

keyingi bo'g'irlardagi unlilar sifati birinchi bo'g'indagi unlilar sifatiga qarab belgilangan. O'zakdagi va affiksdagi bo'g'irlarda faqat orqa qator unlilar: **ta:g'larda** (tog'larda) yoki faqat old qator unlilar mavjud bo'ladi: **köllärdä** (ko'llarda). Unlilar garmoniyasi mavjudligi bilan **q** va **l** orqa tanglay (velyar) tovushlari mavjudligi aniqlangan va unga **k** va **l** qarama-qarshi qo'llangan.

Ammo ayrim turkiy tillarda unlilar uyg'unligining buzilish tendensiyasi kuzatiladi. Bu, ayniqsa, chuvash tilida yaqqol ko'rinadi. Chuvash tilida affiksial bo'g'inlar, ko'pincha, unlilar garmoniyasi qonunga bo'ysunmaydi. Masalan, chuvash tilidagi ko'plik affiksi **-sem** orqa qator va old qator o'zaklarga ham bir xil darajada birikadi: **ïvълъmzem** (mening o'g'illarim), **lajazem** (otlar), ammo **issem** (ish), **inezem** (sigirlar). Ayrim chuvashcha so'zlarda orqa qator unlilar old qator unlilarga aylangan: **xil** (qish)<**qъn** (boshqa turkiy tillarda **qish**), **xir** (qiz)<**qiz** va, aksincha: chuv. **kun**<**kün**, **kül** (kulmoq)<**kul**. Bunga qadimgi velyar **q**ning chuvash tilida **x** ga o'tish ham sababkor bo'lgan.

Unlilar garmoniyasi Volga bo'yi turkiy tillarida sodir bo'ladigan qisqa unlilarning kengayish jarayonining buzilishiga olib kelishi mumkin. Qisqa unlilar—**u, ü, i, i** reduksiyasiga uchragan va kengaygan: **u>ъ, ü>yo, i>ъ>i, u>o, ö>ö, i>i, i>y**. Reduksiya muayyan darajada qatorning buzilishiga olib kelgan.

Turkiy tillardagi **bizga** tatar tilidagi **biz** tarzida talaffuz qilinadigan **biz** muvofiq keladi. Turkiy tillarning qipchoq tipiga mansub **o** va **u** ning ancha orqa qator artikulyatsiyaga ega ekanligi allaqachon belgilangan. Chuvash tilida bobotil davridagi **i** ning **i** ga o'tishi qachonlardir sodir bo'lgan.

Unlilar garmoniyasining buzilishi o'zbek adabiy tiliga asos qilib olingan o'zbek tilining nosingarmonistik deb ataladigan shevalarida sodir bo'lgan. Prof. V. V. Reshetovning ta'kidlashicha, o'zbek adabiy tili o'zaklar, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi formantlar tizimida o'zaro qarama-qarshi unlilarga asoslangan tipik turkiy fonetik xususiyat sanalgan singlarmonizmni yo'qotgan. Ammo bu fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Sababi o'zbek tilshunosligiga oid ilmiy manbalarda haligacha o'zbek tilida bu hodisaning batamom yo'qolmaganligi, turkiy tillarga xos bo'lgan bu qonuniyatning qisman, ayrim so'zlarda esa to'la saqlanganligi ta'kidlanadi.

Shunday qilib, artikulyatsiyada old qatorga siljish ro'y bergan, ana shu munosabat bilan palatal attraksiya—old qator va orqa qator unlilarini o'zaro farqlash buzilgan. Turkiy vokalizmga xos bo'lgan unlilarning har bir juftiga mos keladigan bitta indeferent (oralig) tovushni yuzaga keltirgan. O'zbek adabiy tilidagi uchta fonema **i, u, o** hozirda turkiy vokalizmning oltita o'rinbosari sifatida ishtirok etadi. **I** fonemasi **i** va **i** ni, **u** fonemasi **u** va **ü** ni, **o** fonemasi **o** va **ö** ga mos keladi. **O'** unlisi **u** va **o** oralig'idagi qandaydir tovushni ifodalaydi. U **u** ga yaqinlashadi va biroz old tomon siljigan. Umumturkiy **i** va **i** larning bir fonemaga qo'shilishi uyg'un tilida ham kuzatiladi.

Ammo buning bilan o'zbek tilining nosingarmonistik shevalarida unlilar uyg'unligi umuman yo'qolgan deb bo'lmaydi. O'zbek tilidagi **i** unlisi **i** va **i** variantlariga ega. Xuddi shuningdek, **u** fonemasi **u** va **ü** ga ajratiladi. **Gul** so'zidagi **u** fonemasi **qum** so'zidagi **udan** farqlanadi. **Ko'l** so'zidagi **o'**, **qo'l** so'zidagi **o'** bilan bir xil emas. Birinchi so'zidagi **o'** til oldi, ikkinchi so'zidagi **o'** esa orqa qator

**o'** ni ifodalaydi. Demak, o'zbek tilida singarmonizm qonuniga umuman amal qilinmaydi, degan fikrga qo'shib bo'lmaydi. Bu hozirda o'zbek tilidagi unlilar garmoniyasi haqida ilmiy manbalarda turli fikrlar bildirilayotganligi bilan izohlanadi.

Ayrim turkiy tillarda unlilarning labial garmoniyasi ham ancha kuchli rivojlangan. Birinchi bo'g'inda lab uyg'unligi mavjud bo'lsa, affiksial bo'g'inglarda ham labial unlilar bo'lishi kerak: qirg'. **Köllördö** (ko'llarda), olt. **köldö**, yoq. **köröbün** (ko'raman), **turuoxput** (turamiz), **og'olor** (bolalar) va hokazo.

Turkiy bobotilda lab attraksiyasining bunday tipi, ehtimol, bo'lmagandir. Ammo qadimgi turkiy tilda bunga o'xshagan lab garmoniyasiga uchragan so'zlarga duch kelinadi. Ammo qadimgi turkiy tilda ham lab garmoniyasining buzilish holatlari uchraydi. Buni hozirgi ko'pchilik turkiy tillarda kuzatish mumkin. Biroq ba'zi holatlarda so'zlashuv nutqida bunga duch kelinadi: or.tat. **tölke** (tulki) va **tölkö** (og'zaki nutqda).

Chuvash tilida oxirgi unli boshqa turkiy tillarda kuzatilmaydi: chuv. **kul** (ko'l), tur. **göl**, qirg'. **köl**, tat. **kül**; chuv. **ug'ъ** (o'q, nayza)~turkm. **oq**; chuv. **udъ** (pichan, o't, xashak)~tur. **ot** va hokazo. Bu holat chuvash tilidagi oxirgi bo'g'indagi ochiqlikni ifodalaydi.

Tuva va tofalar tillarida sirg'aluvchi unlilar uchraydi. Ular turkman va yoqut tillaridagi qisqa unlilarga to'g'ri keladi. Tuva tilidagi bobotil cho'ziq unlilari sirg'alishga uchramagan va qisqa unlilar bilan aralashgan. Sherbakning fikricha, sirg'aluvchi unlilar **p, t, ch, k, s, sh** undoshlarining kuchli aspiratsiya (bo'g'izda talaffuz qilinish) ta'sirida vujudga kelgan. Ammo bu hanuz munozaraligicha qolmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. М.-Л., 1951.
2. Рафиев А. Туркий тилларнинг қиёсий-тарихий грамматикаси. Т., 2004.
3. Серебренников Б. А., Гаджиева Н. З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. М., 1986.
4. Щербак А. М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (Имя). Л., 1977.
5. Щербак А. М. Сравнительная фонетика тюркских языков. Л., 1970.
6. Щербак А. М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков. (Глагол). Л., 1981.